



QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Mirzohidov Mirabbos
Mirzohid o‘g‘li

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda rivojlangan davlatlar – AQSh, Yevropa Ittifoqi, Malayziya va Turkiya – tajribasi asosida qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Xususan, investor huquqlarini himoya qilish, axborot shaffofligini ta'minlash, IPO jarayonlarini soddalashtirish va raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha xorijiy amaliyotlar tahlil qilinadi. O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: qimmatli qog‘ozlar bozori, huquqiy islohot, investor huquqlari, IPO, tartibga solish, xalqaro tajriba

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bozorlarining, xususan, qimmatli qog‘ozlar bozorining barqaror faoliyati mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu bozor kapital resurslarining samarali taqsimoti, xususiylar sektorga investitsion oqimlarni jalb etish, mulkchilikni diversifikatsiyalash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan davlatlarda real sektor va moliya sektorini bog‘lovchi ko‘prik sifatida xizmat qilmoqda. Uning asosiy ustunliklari – kapitalning likvidligi, investorlar uchun ochiqlik, risklarning bozor orqali taqsimlanishi va strategik investitsiyalarning manbaiga aylanishidir.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi 30 yil davomida global fond bozorlaridagi yillik aksiyalar savdosi hajmi 5,04 trillion AQSh dollaridan 120,86 trillion dollargacha o'sib, 24 barobarga oshgan. Bu o'sish asosan AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlardagi fond birjalari hisobiga yuzaga kelgan. Bunday yuqori ko'rsatkichlarning ortida, eng avvalo, puxta ishlangan huquqiy-institutsional baza, shaffoflik, samarali regulatsiya tizimi va investor huquqlarining to'liq kafolatlanganligi yotadi.

Bugungi globallashuv sharoitida kapital bozorlarini tartibga solish va rivojlantirish masalasi ko'plab mamlakatlarning milliy iqtisodiy strategiyalarida ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilmoqda. Jumladan, AQShda Securities and Exchange Commission (SEC) tomonidan qattiq tartibga solish va har haftalik hisobotlar tizimi orqali investorlar ishonchi ta'minlangan; Yevropa Ittifoqida MiFID II direktivasi asosida vositachilik faoliyati, axborot oshkoraligi va investor himoyasi qonuniy jihatdan kafolatlangan. Malayziya esa Shariy tamoyillarga asoslangan "sukuk"

obligatsiyalari orqali keng ijtimoiy qatlamni qamrab olishga erishgan. Turkiyada esa IPO (ommaviy aksiyalashuv) siyosati orqali fond bozorining chuqurligi oshirilmoqda. Bu kabi tajribalar qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda huquqiy asoslarning muhimligini yaqqol ko'rsatib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda kapital bozorini, xususan, fond birjasi faoliyatini kengaytirish va erkin bozor mexanizmlarini joriy etish borasida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, IPO savdolarini kengaytirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish, raqamli savdo maydonlarini joriy etish kabi yo'nalishlar ustuvor deb belgilangan. 2021-yil 13-apreldagi PF–6207-sonli Prezident farmonida kapital bozorini yanada rivojlantirish, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–153-son farmonida esa savdo hajmlarini ko'paytirish, davlat korxonalarini aksiyalashtirish, investorlar sonini oshirish chora-tadbirlari huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Shu bilan birga, amaldagi tartibga solish tizimida bir qator tizimli muammolar mavjud: market-meykerlar instituti huquqiy jihatdan kuchsiz, IPO jarayonlari asosan yirik davlat korxonalariga qaratilgan, kichik investorlar uchun moliyaviy vositalar cheklangan, dividend to'lovlarining kechikishi, moliyaviy hisobotlarning e'lon qilinmasligi kabi holatlar fond bozoriga ishonchni pasaytiradi. Investorlarni himoyalovchi arbitraj mexanizmlarining samarasi past, shuningdek, qimmatli qog'ozlar savdosi bilan bog'liq axborotlar yetarlicha ochiq emas.

Shunday sharoitda, xalqaro tajriba va ilg'or yondashuvlarni chuqur o'rganish orqali O'zbekiston kapital bozorini rivojlantirishda huquqiy asoslarni takomillashtirish – dolzarb va zarur ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qimmatli qog'ozlar bozori faqat texnik infratuzilma emas, balki mustahkam va shaffof huquqiy tizimga tayanadi. O'zbekiston o'z qonunchiligini soddalashtirish, investorlarni himoya qiluvchi mexanizmlarni mustahkamlash hamda innovatsion moliyaviy vositalarni qonuniy asosda joriy etish orqali milliy fond bozorini yanada raqobatbardosh qilish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fabozzi F. J. Capital Markets: Institutions, Instruments and Risk Management. – Cambridge: MIT Press, 2013. – 672 b.
2. Keller C., Siegrist M. Investing in stocks: The influence of financial risk and risk perception // Risk Analysis. – 2006. – T. 26, №5. – B. 1189–1202.
3. Jiang F., Jiang Z., Kim K. Institutional investors, financial disclosure, and market efficiency // Journal of Financial Economics. – 2020. – T. 137, №2. – B. 319–339.
4. Foucault T., Gehrig T., Strumeyer G. Market Microstructure: Theory and Empirical Analysis. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 514 b.
5. Securities and Exchange Commission (SEC). Annual Report 2022–2023 <https://www.sec.gov>.
6. European Commission. Markets in Financial Instruments Directive (MiFID II): <https://finance.ec.europa.eu>.
7. Malaysia Securities Commission. Guidelines on Sukuk Issuance – <https://www.sc.com.my>.

8. Capital Markets Board of Turkey (CMB). Capital Market Law No. 6362—:
<https://www.cmb.gov.tr>